

"OLAM- BOLA NIGOHIDA" (SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARI ASOSIDA)

Ahmedova Gulzoda Akbarjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAUning 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: H.Ahmedov f.f.n, dotsent

ahmedovagulzoda710@gmail.com

Annotation:

This article discusses the image of a child and their characteristics in the stories "Uzbeks" ("Uzbek character") and "Lost under the hood" by Shukur Kholmiraev, a great representative of Uzbek literature. Through the comparative-typological analysis of both stories, the peculiarities of the writer's creative concept are analyzed

Keywords:

Uzbek literature, Shukur Kholmiraev, "Uzbeks" (Uzbek character) and "Lost under the zov" stories, comparative-typological analysis

Muammoning qo'yilishi. Har qanday badiiy asar biron-bir muammoni yoki axloqiy masalalarni ko'tarib chiqadi. Bundan yozuvchining ko'zlagan maqsadi bo'ladi. XX asr o'zbek adabiyotida hikoyalar ustasi sifatida nom qozongan Shukur Xolmirzayev asarlarida har doim muhim va dolzarb muammolar ko'tarilgan. Maqolamizda yozuvchining ikki hikoyasi tahlili orqali muallif ko'targan mavzularga e'tibor qaratamiz. XX asr o'zbek adabiyotini zamon o'lchovida shartli ravishda uch tarixiy bosqichga ajratsak, Shukur Xolmirzayev uning so'nggi bosqichida so'z san'atimizni yangi saviyaga ko'tarishga salmoqli hissa qo'shgan zabardast adiblarimizdan biridir.

Muammoning tadqiqi. Shukur Xolmirzayev talabalik yillaridan iste'dodini tirishqoqlik bilan parvarish etdi. O'nlab hikoyalar, "Oq o'tli"(1961) va "To'lqinlar" (1962) nomli bir emas, ikki qissa shu vaqtdan yozildi. [1. Shukur Xolmirzayev. www.ziyouz.uz]

60-yillardan o'zbek hikoyachiligida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ma'naviyat muammolariga e'tibor kuchaydi. Hikoyada lirik ruh chuqurlashdi. Hikoyachilikka O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, U. Nazarov kabi mohir, o'ziga xos yozuvchilar kirib keldi. [2. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti. Toshkent, 1999. 497-498-betlar]

Darvoqe, yirik adabiyot nazariyachisi L.I.Timofeev hikoya syujetining o'ziga xosligi haqida to'xtalib, shunday deydi: "Hikoya birgina voqea asosida quriladi", "hikoyada inson xarakteri birgina voqea, birgina epizod orqali tasvir etiladi, shunga muvofiq xarakterlar tayyor holda beriladi", "hikoyada xarakterning bir holatigina ko'rsatiladi", "xarakterning hikoyaga kiringuncha bo'lgan taraqqiyoti yoki undan keyingi holati tasvirlanmaydi", "hikoyada personajlar soni cheklangan bo'ladi"... [3 . Бобоев Т. Бадий иждо хакида . Т., Узадабийнашр, 2001. 110-бет]

Hikoya (ar.so'z ma'nosi: 1.Biror narsaning og'zaki bayoni , tavsiloti; 2. Nasriy yo'l bilan yozilgan kichikroq badiiy asar) - Izzat Sultonning asosli ta'kidlashicha, latifa mazmuniga kirgan voqeadan kattaroq, ammo povestga mazmun beruvchi voqeadan kichikroq sarguzashtni, ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvirlaydi. Xususan, u "...minglab bo'laklarga bo'lingan romandir ...kishilik taqdirining poyonsiz poemasidan bir epizod... shunday voqea va hodisani tanlab oladi va o'zining tor ramkasida ifoda etadi"(V.G.Belinskiy). Hikoyaning eng ixcham ko'rinishi novella (ital. novella-yangilik) deb yuritiladi

"Xarakterning muayyan vaziyatdagi holati voqeaning keskin burilish nuqtasida, dinamik syujet, kuchli dramatism, kutilmagan yechim asosida ko'rsatish – hikoya (novella) uchun eng xarakterli xususiyatdir". (T. Boboyev). [4. H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. 2004. 222-bet].

Hikoyachilikda Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor an'analarini yangi bosqichga ko'tarishda Shukur Xolmirzayevning o'ziga xos o'rnini bor. Masalan, Sh. Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligida Abdulla Qodiriyning tabiatni jonlantirib tasvirlash an'analarini rivojlantirdi. "Jinlar bazmi" [5. Abdulla Qodiriy. "Jinlar bazmi",] hikoyasidagi tabiatning yovvoyi tabiiyligi va sirliligi, shu tabiiylik va sirlilikdagi go'zallikning inson qalbiga vahima solish darajasidagi mahobati Shukur Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" kabi hikoyalarda yangi bosqichga ko'tarildi. [6. Shukur Xolmirzayev. Saylanma I jild, 155-bet].

Shukur Xolmirzayev Abdulla Qahhordan so'z tejash, detallarga katta ma'nolar yuklash, qahramon ruhiyatida kechayotgan ziddiyat, to'qnashuvlarni sodda va hayotiy qilib, ixcham tasvirlash, dialoglardan jonli manzara yaratish sirlarini o'rgandi. Biroq bu ta'sirni faqat tashqi ko'rinishdan izlamaslik kerak. Bu ta'sirni qahramonlar ruhiy dunyosini aks ettirishdagi badiiy prinsiplar mushtarakligidan izlamoq kerak.

Shukur Xolmirzayevning aksar hikoyalarda shaxs xarakteri va insonning ma'naviy bisoti, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar hamda ona tabiat bilan uzviy birgalikda, mustahkam bog'lanishda ochiladi. Uning birgina "Zov ostida adashuv" hikoyasiga nazar tashlaylik. Bu hikoya boshqa tabiatning tabiiy va yovvoyi go'zalligi tasviriga bag'ishlangandek tuyuladi. Bir qaraganda va hikoya matnidagina kelib chiqib xulosa qilsangiz, shunday. Aslida esa, asar shu tabiatga munosabatda bo'layotgan, uni tushuna olayotgan, his etayotgan inson qalbining ma'naviy bisoti haqida. Tabiatgina emas, uni his eta oluvchi inson qalbi ham shu qadar go'zal bo'lishi mumkinmi, deb hayratga tushasiz asarni o'qib. (Naim Karimov. - XX asr o'zbek adabiyoti, "O'qituvchi". T., 1999. 498-504-betlar).

Badiiy asarda yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oya, fikrni obraz ifoda etadi. Uning qanday tasvirlangani - yozuvchi mahoratiga bog'liq. Adib o'z hikoyalarda bolalar obrazini kiritish orqali ularning ruhiyatida yuz beradigan turli xil jarayonlarni o'quvchiga jonli va ishonarli tarzda yetkazib berishga harakat qiladi. Xususan, "O'zbeklar" (O'zbek xarakteri) hikoyasidagi Ergashvoy kishi e'tiborini tortadigan qahramondir. Chunki u har qanday sharoitda nafsini uchun vijdonini sotmaydigan, andishali va barcha atrofdagi kishilarga yaxshilikni ravo ko'ruvchi ijobiy obrazdir. Ushbu hikoyada Toshkent viloyatidagi qishloqlardan biriga paxta terish uchun borgan talabalarning sal kam bir oylik turmushi aks ettirilgan bo'lib, og'ir vaziyatlarga duch kelganda, insoniy xarakteridan kelib chiqib, yo'l tutgan Azimjon, O'rmon aka va boshqa buqalamun obrazlar orqali Ergashvoy ularga nisbatan ancha yosh bo'lsa-da, mulohazali fikrlaydigan va sofdil yigitligiga amin bo'lamiz.

"Zov ostida adashuv" hikoyasida esa yetti yoshli Berdimurod ismli tirishqoq, aqlli, barcha yumushlarda ota-onasiga ko'maklashadigan, hatto qo'rqinchli o'rmonda yolg'iz o'zi adashib qolganda ham, tushkunlikka tushmay, bir kecha o'rmonda tunab, cho'chqalar galasidan ham omon qolib, ota-onasi bag'riga sog'-salomat qaytgan dovyurak bola obrazi gavdalangan.

Xulosa qilib aytganda, quyidagicha fikrlarni ilgari surish mumkin:

1. "Zov ostida adashuv" hikoyasida – yetti yoshli bola o'rmonda adashib qoladi. O'zi yolg'iz qolsa ham, bir kecha-kunduz ichida yo'l topib, qutulib chiqadi. Shu fursat ichida bola xalq orasida ma'lum bo'lgan hayvon va qushlar haqidagi afsona va irimlar haqida eslaydi, ularning xalq orasida boshqacha atalishi, ular bilan muomalada nimalar qilish kerakligini anglab oladi. Va muhim xulosa otasi tomonidan aytiladi: "Bolam, turmushda ham shunday qilib, aql-farosat bilan yo'l topsang bo'lgani. Bu adashuv senga saboq bo'lsin!" (Shukur Xolmirzayev. "Zov ostida adashuv. 175-bet). Bunda bolada qiziquvchanlik, og'ir vaziyatda o'zni tuta bilish, kurashuvchanlik, mardlik kabi fazilatlar namoyon bo'ladi.

2. “O‘zbek xarakteri” hikoyasida Botir cho‘ponning o‘g‘li – Abduqahhor bola bo‘lishiga qaramay, oq-qorani, halol va haromni farqlaydigan bola sifatida gavdalanadi. Buni kichik bir parcha ham tasdiqlaydi: “Kelasi yildan paxtaga chiqamiz!.. Men hozir ham paxta teraman. Opamga terishaman... Kitob? O‘qiyman. “Robinzon Kruzo” bor. Bitta feldsher tashlab ketgan. O‘tgan yili... Ukamni ko‘rgani kelgandi... Men yig‘ladim. Keyin shu kitobni berdi. Yaxshi kitob!” [7. Shukur Xolmirzayev. Saylanma ikkinchi jild. 126-bet]. Qisqagina shu parchada bolaning mehnatsevarligi, kitobga mehri, ota-ona, opa va ukaga – oilasiga sadoqati ayon bo‘layapti. “Bizningcha o‘zbek adabiyotida tabiat va uning unsurlariga odam bilan teng qimmatga ega bo‘lgan ijtimoiy-estetik qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish aynan Shukur Xolmirzayev ijodidan boshlangan”-deya e‘tirof etgan edi adabiyotshunos-olim Qozoqboy Yo‘ldoshev. [8. Q. Yo‘ldoshev. Ochqichso‘z”, 374-bet]. Shukur Xolmirzayevning "O'zbeklar"(O'zbek xarakteri) va "Zov ostiga adashuv" hikoyalari XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, millionlab adabiyot ixlosmandlarining ko'nglidan munosib o'rin egallagan, shuningdek, qalbida hamisha nekbin tuyg'ulari barq urib turuvchi bola obrazlari mahorat bilan tasvirlangan haqiqiy ijod namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziyouz.uz. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi.
2. Каримов Н. - XX аср ўзбек адабиёти, "Ўқитувчи"нашриёти, Т.: 1999. – 544 б.
3. Бобоев Т. Бадиий ижод хақида . Т., Узадабийнашр, 2001. 210 б.
4. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т.: 2004. – 260 б.
5. www.ziyouz.com kutubxonasi. Abdulla Qodiriy. Jinlar bazmi.
6. Холмирзаев Ш. Сайланма. 1 жилд. Т.: “ШАРҚ”. 2003. – 448 б.
7. Холмирзаев Ш. Сайланма. 2 жилд. Т.: “ШАРҚ”. 2005. – 464 б.
8. Қозоқбой Йўлдош. Очқич сўз. “Тафаккур” нашриёти. 2019. – 688 б.